MAQSUD SHAYXZODA SHE'RLARIDA-BADIIY TERANLIK

Jamoldinova Nargiza Tagripova

Toshkent viloyati, Yuqori Chirchiq tuman texnikumi o'qituvchisi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada o‘zbek va ozarboyjon xalqining suyukli dilbandi shoir Maqsud Shayxzodaning “She’r chin go‘zallik singlisi ekan” she’rida mubolag‘a san’atining qay darajada nafis qo‘llanilishi va o‘quvchini o‘ziga qay tariqa jalb eta olishi haqida atroflicha fikr yuritamiz.

Kalit so‘zlar: she’rsiz qalb, qo‘shiqsiz kuy, she’riyat, singlisi, abadiyat.

Turli zamonlar, turli vaziyatlar, turli voqelar o‘tib boraverar ekan shularning har biridan eng asosiysi vaqt sinovidan hech kam-ko‘stsiz o‘tgan asar asl asar demakdir. Donolar bu borada vaqt haqida shunday deydi: "Vaqt - go‘yo hayot kiyimi to‘qiladigan iplar bo‘lib, uning pishiq va nafisligiga qarab hayot aziz hamda bebaho bo‘ladi". Agar iplar sifatsiz va to‘zigan bo‘lsa hayot ham tuban, mazmunsiz kechadi. Vaqtning yana bir xususiyati - agar u o‘tib ketsa, qaytib kelmaydi. U inson sarf qiladigan asosiy dastmoyadir. Qanchalik ko‘p bo‘lsa ham ozdir. Barakali bo‘lsa, ko‘p. Shu bois ham inson o‘z hayotining har bir daqiqa va lahzasidan unumli hamda barakali foydalanib, uni yaxshi amallar qilishga sarflashi vojibdir.

Dinimiz Islomda ham yalqovlik, loqaydlik, kabi illatlardan uzoqda bo‘lishimizga amr qiladi va har kuni erta turishga, xayrli amallarni qilishga hamda yoshlik, sihat-salomatlik, bo‘sh vaqtni g‘animat bilishga chorlaydi.

Ulug‘ ajdodlarimiz kunlarini, vaqtu soatlarini foydali ish qilishga, go‘zal ahloqiy va ilmiy darajalarga yetishish yo‘lida sarflashga urinar edilar. Shuning uchun ham ularning bugunlari kechagisidan, ertangi kunlari bugungisidan a’lo bo‘lardi. Ular: **“Vaqt qilichdir, agar sen uni kesmasang u seni kesadi”**, - degan hikmatli so‘zga amal qilishgan. Bu jumlalarning isboti sifatida umrida har qancha sitam,

qiyinchiliklarga qaramasdan, umrining qolgan qismini yaxshi o‘tkazish maqsadida hamisha izlanishlar olib borib, muntazam ijod bilan hamnafas bo‘lgan yozuvchimiz Maqsud Shayxzoda va uning ijodiy merosi haqida so‘z yuritmoqchiman. Shoirning ijod ummoni juda keng ammo bugun biz ushbu maqolada faqat uning bir tomchisiga nazar tashlaymiz.

Yozuvchining “She’r chin go‘zallik singlisi ekan” she’rida:

She’rsiz qalblarga achinaman men,
Ularda na tonglar kunduzin boshlar.
Na oqshom yulduzlar ufqin ochar keng,
Na bahor chog‘ida sayraydi qushlar.

She’rsiz qalbning naqadar o‘lik qalbdek bo‘lib qolishi, unga chin ma’noda achinishi, qalbi o‘lgan insonning tirik murdaga aylanishi ma’nolari ifodalangan. She’riyat inson qalbiga shundayin bir iliqlik baxsh eta oladiki, u orqali butun qalbingizni yorug‘lik egallaydi. Dilozorlik kishilarni bir-biridan yiroqlashtiribgina qolmay, balki uning ish faoliyatiga ham o‘zining salbiy ta’sirini ko‘rsatadi. Hatto she’rsiz yulduzlar o‘z jamolini cheksiz osmon qaridan ko‘rsatmasligi va qushlarning ham erta bahorda sayragisi kelmasligi bayon etilgan.

Qo‘shiqsiz uylarga kulgi yoqmaydi,
Xonadon ahlining qovog‘i osiq.
Hatto derazadan quyosh boqmaydi,
Soatning o‘zi ham tiqillar bosiq.

Bu jumlalarda qo‘shiq va kuysizlikdan kelgan xafalik hech bir hatto bir chimdim baxtiyorlikka ham imkon bermasligi juda nafislik bilan aks ettirilgan.

She’rsiz ko‘chani tole qarg‘agan,
Bu yerda sevgining manzili bekik…
Quvonch bunda kezar kayfi tarqagan,
Keksa xumoridek qomati bukik…

Sizni sevadiganlardan tasalli olishingiz va shifokorga murojaat qilib, zarur bo‘lsa jarohatingizni tikib qo‘yishlari mumkin. Ammo qalb jarohatiga malham bormikan?! Quvonch ham bu sarmastlikdan o‘zini yo‘qotib qo‘ygan shaklda ajoyib tasvirlangan.

Har kimki u bilan sevishsa agar,

Husniga chiroylar qo‘shilar aynan.

Ya’nikim, she’rni, she’riyatni, adabiyotni kimki o‘ziga chin do‘st sanar ekan uning qalbida go‘zallik va yaxshilik atalmish azim chinorlar qad rostlagan bo‘ladi. Qalbi go‘zal insonlar bir-biriga minnatdorchilik bilan muomala qilishadi va do‘stlarga, o‘z-tanishlarga yordam beradi. Ular do‘stlarini yaxshilaydi, ularni muntazam ko‘radilar va ularning hech kimlarni ishonchni yo‘qotmaganini his qiladilar.

Bu go‘zallik hayotning har bir sohasiga ta’sir qiladi, ammo go‘zal qalbning tamoqlari orqali jasoratingiz, fikr-muammolaringiz va muhabbatlaringizni bildirishingiz mumkin. Go‘zal qalbga ega bo‘lish bu meninggizimizdir va har birimiz uni o‘zimizning javobgarligimizni his etishimizni yozuvchi juda go‘zal jumlalar bilan tasvirlab bergan.

Inson hayotda halol yashasa, hech qanday yomonlik urug‘ini qalbiga sochmasa, muhimi, iymoni mustahkam bo‘lsa, hatto o‘lim bilan yuzlashishgayam qo‘rqmaydi. Vijdoni toza insongina tanadan jon ajralishiga, shunchaki berilgan ne’matning qaytarib olinishi deya qaraydi.

Xulosa qilib aytganda, shoir Maqsud Shayxzoda o‘zining betakror va jozibali, xalq tiliga yaqin she’rlari bilan o‘zbek va ozarboyjon adabiyotida o‘chmas iz qoldirdi. Aynan shoirning xalqona ruh bilan yo‘g‘rilgan she’rlari katta-yu kichik qalbidan chuqur joy egallagan. Shoir she’rlari doimo qalbimizni yoritib turguvchi nur-ziyodir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)

1. https://saviya.uz/hayot/tarjimai-hol/maqsud-shayxzoda-1908-1967/.

2. Chorak asr devoni. M.Shayxzoda. “Adabiyot nashriyoti”. T.-1958.
3. https://uz.m.wikipedia.org 4. http://kutubxonachi.uz 5.https://aniq.uz/ 6. She’rlar. M.Shayxzoda. Xurshid Davron kutubxonasi. T.-2018.